

## BANKLAR TOMONIDAN KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINI KREDITLASHNING AHOLI FOROVONLIGINI OSHIRISHGA TA'SIRI

**X.Xudayqulov**

Samarqand iqtisodiyot

va servis instituti

“Bank ishi” kafedrası

[xusni970@gmail.ru](mailto:xusni970@gmail.ru)

### ANNOTATSIYA

Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash holati va muammolari va xulosalar, tavsiya va takliflar borasida fikr yuritiladi

**Kalit soʻzlar:** kichik biznes, tadbirkorlik, investitsiya, biznesni yuritish, bank xizmatlari.

### ABSTRACT

The article discusses the situation and problems of lending to small businesses and private enterprises, as well as conclusions, recommendations and suggestions

**Keywords:** small business, entrepreneurship, investment, business management, banking services.

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, respublikamiz tijorat banklari tomonidan 2022 yil davomida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tegishli qarori hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari talablari doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu borada asosiy eʼtibor, kichik biznes subʼektlariga uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar ajratishni kengaytirish orqali aholini, shu jumladan yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish borasidagi ishlarni kuchaytirish, bandlikka koʻmaklashish va ularning turmush farovonligini oshirishga qaratilgandir.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlariga ajratilgan jami kreditlar 2022 yilda 15870 mlrd. soʻmni tashkil qilib, 2021 yilga nisbatan 1,3 barobarga oshgan. Shundan ajratilgan mikrokreditlar oʻtgan 2021 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobarga oshgan va qariyb 3326 mlrd. soʻmni tashkil qilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qoʻllab - quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi

ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda oshishida o'z aksini topmoqda. Biznes yuritish jumladan, bank faoliyatini amalga oshirish sharoitlarining yaxshilanishi va joriy etilgan imtiyozlarning ijobiy ta'siri natijasida 2016 yil mobaynida mazkur soha sub'ektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratilgan kreditlar summasi 2021 yildagiga nisbatan 32,3 foizga oshib, 12,1 trln. so'mni tashkil etdi.

Shu bilan birga, aholining bandligini ta'minlash va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlar doirasida tadbirkorlik sub'ektlariga 2,1 trln. so'm miqdorida, shu jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi PQ-3777-sonli "Har bir oila - tadbirkor" dasturini amalga oshirish t'f'risida"gi Qarori doirasida aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga 1,2 trln. so'm; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi PF-5242-sonli "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari t'f'risida"gi Farmoniga muvofiq hududlarda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun 222,5 mlrd. so'm; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 apreldagi PQ-3680-sonli "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar t'f'risida"gi Qaroriga muvofiq 112,6 mlrd. so'm; aholi bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlik sohasini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadlariga mahalliy hokimliklar huzuridagi hududiy jamg'armalar hisobidan jami 138 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi PF-5466-sonli "Yoshlar-kelajagimiz" Davlat dasturi t'f'risidagi Farmoniga muvofiq "Yoshlar-kelajagimiz" jamg'armasi mablag'lari hisobidan 408,8 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli kreditlar yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun yo'naltirildi. Natijada, ishlab chiqarish sohasida 185 mlrd. so'mlik 1 430 ta loyiha, xizmat ko'rsatish sohasida 132,1 mlrd. so'mlik 1 021 ta loyiha, qishloq xo'jaligi sohasida 91,7 mlrd. so'mlik 710 ta loyiha bank kreditlari hisobidan amalga oshirildi hamda mazkur kreditlar hisobidan hududlarda jami 20 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Hozirgi kunda Respublikamizdagi barcha tijorat banklari o'z kredit va mikro kreditlari bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil etish va ular faoliyatini yanada kengaytirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Jumladan ATIB "Ipoteka bank" tomonidan 2022-yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga ajratilgan mikro kreditlarning eng katta salmog'i aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan bo'lib, miqdori 122 mlrd. so'mga teng. Undan keyingi o'rinlarda qurilish va xizmat ko'rsatish hamda sanoat sohalariga ajratilgan kreditlar egallagan. ATB "Mikrokreditbank" misolida ko'radigan bo'lsak, kichik biznes va xususiy biznes sub'yektlariga ajratilgan jami kreditlar va

mikrokreditlar nisbati quyida o‘z aksini topgan: Mikrokredit qarz oluvchiga kredit ajratilayotgan loyihaning o‘zini-o‘zi qoplashi hisobga olingan holda aylanma mablag‘larni to‘ldirishga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni tashkil etish uchun aylanma mablag‘larni to‘ldirishga beriladi. Mikromoliyalash subyektlari banklar, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar bo‘lishi bilan birga, shulardan tijorat banklari mikrokreditlar ajratish bo‘yicha yetakchilik qilib kelmoqda. Kreditlarni rasmiylashtirishda qarz oluvchi ariza bilan birgalikda bir qancha hujjatlar bilan bankka murojaat qiladi. Ariza 3 ish kuni davomida ko‘rib chiqiladi. Undan so‘ng majburiyatlarning bajarilishini ta‘minlash maqsadida ta‘minot turlaridan biri taqdim etiladi. Kredit hisobiga sotib olingan mulk ushbu kredit bo‘yicha o‘z qiymatining 80 foizi miqdorida garov narsasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Hujjatlar ko‘rib chiqilib, kredit berish to‘g‘risida ijobiy qaror qabul qilinganda, mijoz va bank o‘rtasida kredit shartnomasi tuziladi va kreditning muddati, miqdori hamda foiz stavkasi belgilanadi. Shundan so‘ng mijozga kredit hisobvarag‘i ochilgan holda kreditlar naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda shu hisobvaraقدan o‘tkazib beriladi.

Bugungi kunda Mikrokreditbankning asosiy yo‘nalishi bu – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga bank xizmatlari ko‘rsatishdir. Bank o‘z maqsadi va vazifasidan kelib chiqib, mijozlari misolida kichik biznesni rivojlanishini quyidagi shakllarda amalga oshiradi.



### 1-rasm. “Mikrokreditbank” ATBda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mijozlarga xizmat ko‘rsatish segmentlari<sup>1</sup>

Mazkur yo‘nalishda Bank o‘z maqsadlariga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishni strategik reja sifatida qo‘yganligi, kichik biznes rivoji uchun katta imkoniyatdir:

<sup>1</sup> [www.mikrokreditbank.uz](http://www.mikrokreditbank.uz) “Микрокредитбанк” АТБнинг “2017-2021 йилларга мўлжалланган ривожланиш стратегияси”.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka, ayniqsa, qishloq joylarda yangi korxonalar va ish o‘rinlarini yaratish uchun boshlang‘ich kapitalni shakllantirishda ko‘maklashish uchun maqsadli imtiyozli kreditlar ajratishni kengaytirish;

- tadbirkorlik sub‘ektlariga o‘z faoliyatini kengaytirish hamda xom ashyo va materiallarni keyinchalik qayta ishlash uchun xarid qilish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotish, ichki bozorni respublikamizda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan boyitish, shuning hisobiga qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida o‘z aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun imtiyozli kreditlar ajratishni kengaytirish;

- tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan korxonalarni texnik hamda texnologik jihozlash va modernizatsiya qilish uchun zamonaviy uskunalar va mini-texnologiyalarni sotib olishlari uchun mikrolizing xizmatlari ko‘rsatishni kengaytirish;

- tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqariladigan raqobatbardosh mahsulotlar ko‘rgazma yarmarkalarini tashkil etishda, reklama kompaniyalarini o‘tkazishda, shuningdek, ularni tashqi va ichki bozorlarga olib chiqishning boshqa shakllarini tashkil qilishda tadbirkorlarga yordam berish;

- bank mijozlariga barcha turdagi bank xizmatlarini ko‘rsatish, yangi bank mahsulotlarini amaliyotga joriy etish, tadbirkorlik sub‘ektlari va aholining shahar hamda qishloq joylaridagi bank xizmatlaridan keng ko‘lamda foydalanishlarini ta‘minlaydigan filiallar va mini-banklar tarmog‘ini kengaytirish;

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishni kengaytirish bankning asosiy vazifasi bo‘lib qolishi belgilangan.

### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ: (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Банк хизматлари оммабоплигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2018 йил 23 мартдаги PQ 3620 сонли Қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 17 январдаги “Кичик тадбиркорликни ривожлантиришни рағбатлантириш механизмини такомиллаштириш тўғрисида” 28-сонли қарори таҳририда ЎР ҚНТ, 2004 й., 3-сон, 31-модда.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги “Хунармандсчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб-қўвватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5242-сонли Фармони.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида

- киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 14 б.
6. Гафуров У.В. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Док. Дисс. авреф. Тошкент 2017 й.
7. Sobirovich T. S. et al. Banklarda Masofaviy Xizmatlar Va Ularni Rivolantirish //Academic Integrity and Lifelong Learning. – 2023. – С. 54-57.
8. Bekmurodov A. A. Improving The Introduction Of Digital Technologies In Commercial Banks //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 10. – С. 355-357.
9. Amriddinovich B. A. Features of api services in the implementation of transformational processes in the activities of commercial banks //World Economics and Finance Bulletin. – 2022. – Т. 7. – С. 27-31.
10. Ziyadullayevich X. H. Analysis of Financial Stability of Commercial Banks and Influenced Factors //Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 29. – С. 239-241.
11. Каримова А. Совершенствование банковского кредитования инновационного развития предприятий сферы туризма //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 59-65.
12. Togayev S. S. et al. SCHOOLS OF STRATEGIC PLANNING: A CRITICAL ANALYSIS OF EXISTING CONCEPTS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 488-494.
13. Bekmurodov A. The Impact Of Transformation Processes On The Activities Of Commercial Banks //Archive of Conferences. – 2021. – С. 52-54.
14. Malikova D. Methodology For Effective Assessment Of The Level Of Economic Security Of Banks //Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects. – 2023. – С. 96-98.
15. Zuhur N. et al. Transition Of Higher Education Institutions Of Uzbekistan To A Credit-Modular System //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 123-127.